

**O'ZBEKISTON SSR NING TUZILISHI****Kudaybergenova Zaripa Mirbekovna***Tarix fani o'qituvchisi, Nukus shahri 1-sonli kasb-hunar maktabi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada milliy hududiy chegaralanish va uning oqibatlari, uning aholi hayotiga ta'siri va aholining bu jarayonga munosabati batafsil manbalar asosida yoritib berildi.*

**Kalit so'z:** *Turkiston, yer-suv islohot,dehqon xo'jaligi va kooperatsiya, milliy chegaralanish.*

1925-1929-yillardagi yer-suv islohotlari O'zbek qishlog'ini rivojlantirishda 20-yillarning o'rtalariga kelib ba'zi yutnqlar qo'lga kiritildi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi b'Uan o'zbek dehqoni erkinroq nafas ola boshladi. Oziqovqat razvyorstkasining oziq-ovqat solig'i bilan almashtirilishi dehqonga ortiqcha mahsulotni sotishga, shuningdek, g'o'za va boshqa ekinlar maydonini kengaytirishga imkon berdi. Buning natijasida dehqonlarning tovarlar bilan ta'minlanishi o'sdi, ularning turmush darajasi bir qadar ko'tarildi.1925-yilda o'zbek qishloqlarida 1917-yil oktabr to'ntarishidan oldingi rivojlanish tamoyillari saqlanib qolgan edi. Qishloqda ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo'ldi, yersiz dehqonlar barcha xo'jaliklarning taxminan

10 %ini, 1—3 desyatinagacha yeri bor kam yerli dehqonlar 64 %ini, 3—10 desyatinagacha yeri bor o'rtahol dehqonlar 20 %ini, 10 desyatinadan ortiq yerli boy dehqonlar 6 %ini tashkil qilgan. Bu boy xo'jaliklar barcha xo'jaliklar yerlarining 36

%iga egalik qilganlar. Boy xo'jaliklar ikki toifaga bo'lingan. Bular - 40-50 desyatinadan ortiq sug'oriladigan yeri bor boy xo'jaliklar va 10-40 desyatinagacha yerli o'ziga to'q xo'jaliklar. Chorakor, yetim, qarol kabi dehqon tabaqalari asosan boy xo'jaliklarning yerini ijaraga olib, unda ishlab, oilasini boqar edi. Katta yer egalari odatda yerga ishlov berishga qatnashmay, chorikorlar yetishtirgan hosildan o'z ulushini olib, boshqalar hisobiga yashardilar. Quloq xo'jaliklar a'zolari yerda o'zlari ishlagan va ortiqcha yerlarini ijaraga bergan. Yerni ijaraga bergan, birovlarning kuchidan foydalanganlarni sovet hukumati ekspluatator deb yomonotliqqa chiqardi.

Boylarga nisbatan bunday munosabatda bo'lishning sababi shundaki, kommunistlar partiyasi dasturida ekspluatator sinflarni yo'q qilish, sinfsiz, xayoliy sotsialistik, kommunistik jamiyat qurish vazifasi qo'yilgan. Shu maqsaddan kelib chiqib sovet hukumati O'zbekistonda mulk egalarini sekinasta cheklash va tugatish siyosatini olib bordi. o'zbek qishloqlarida mana shu siyosatni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlardan biri 1925- 1929- yillardagi yer-suv islohoti bo'lgan. Bu islohot joylarda shart-sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga qarab uch bosqichda o'tkazildi. Birinchi bosqich Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlarida 1925-1926- yillarda bo'ldi. Zarafshon viloyatida 1927-yili yer-suv islohoti o'tkazildi. Islohot Qashqadaryo,

Surxondaryo, Xorazm okruglarida oxirgi navbatda 1928-1929- yillarda amalga oshirildi. O'zbekiston sovetlarining Markaziy Ijroiya Komiteti 1925-yil 1-2- dekabr kunlari o'zining favqulodda sessiyasiga to'planib, yersuv islohoti o'tkazish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqdi. 2-dekabrda sessiya

22 «Yer va suvni musodara qilish to'g'risida», «Yer-suv islohoti o'tkazish to'g'risida»gi dekretlarni qabul qildi. Islohotni o'tkazish uchun MIK huzurida Markaziy yer-suv islohotini o'tkazish komissiyasi, viloyat ijroiya qo'mitalari huzurida viloyat komissiyalari, har ikki volostga bittadan rayon yer-suv islohoti o'tkazish komissiyalari tashkil etildi. Yer-suv islohotini o'tkazish to'g'risidagi dekretga asosan Farg'ona viloyatida 40 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatina va undan ortiq sug'oriladigan yerlari bor katta yer egalari xo'jaliklarining butunlay tugatilishi, ularning yerlari davlat yer fondiga o'tkazilishi, dehqonlarga bo'lib berilishi nazarda tutildi. Yer bilan barcha ishchi ot-ulovlari, dehqonchilik asbob-uskunalari ham musodara qilindi. O'ziga to'q xo'jaliklar, yer egasining to'la yoki qisman kuchi yoki oila a'zolari kuchi bilan ishlanadigan xo'jaliklar uchun Farg'ona viloyatida 7 desyatina, Toshkent, Samarqand viloyatlarida 10 desyatina norma belgilandi. Bu xo'jaliklarning belgilangan normadan ortiqcha yerlari musodara qilindi. Ortiqcha dehqonchilik asbob- uskunalari, ot-ho'kizlari majburan olinib, davlat fondiga o'tkazildi.

1926-yil 13-dekabrda O'zbekiston MIK Zarafshon viloyatida yer-suv islohoti to'g'risida qaror qabul qildi. Qaror mazmuni 1925- yildagi dekret bilan asosan bir xil edi. Qisman farqi shunda ediki, bu qarorda 35 desyatina va undan ko'p yeri bo'lgan xo'jaliklar va amir amaldorlarning yerlarini, miqdoridan qafiy nazar, musodara qilish belgilandi. Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida mehnat qilmay yerdan foydalanadigan xo'jaliklarni tugatish to'g'risida O'zbekiston hukuma 1928-yilda qaror qabul qildi. Qarorda mehnatsiz ku kechiradigan, 20 gektar va undan ortiq sug'oriladigan yoki 45 gektar lalmi yerga ega bo'lgan boy xo'jaliklar butunlay tugatishi nazarda tutildi. Bu qarorda boy va o'ziga to'q xo'jaliklarning ortiqcha yerlarini musodara qilish belgilandi. Islohot dastlab Farg'ona, Samarqand, Toshkent viloyatlarining barcha rayonlarida 1925-yil dekabrda boshlandi. Andijon uyezdining Norin tumanida katta yer egasi Sotvoldiqozi Abdurahmonxo'jayev xo'jaligi rayon komissiyasi qaroriga asosan tugatildi. Bu xo'jalikning 13 ta qishloqda 1726 tanob yeri, 83 bosh buqasi, 14 bosh oti va ko'p miqdordagi asbob-uskunalari musodara qilindi. Uning yerlarida 120 ga yaqin chorikor mehnat qilardi. Boy mulki chorikorlarga bo'linib berildi. Ulardan ortgan yerlar davlat fondiga o'tkazildi. Toshkent viloyatining Obliq volostida RJsmatovning 57 desyatina yeri, Dalvarzin volostida bir boyning 90 desyatina yeri, Pskent volostida TDurmatovning 79 desyatina yeri musodara qilindi. 1925-1929- yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasida barcha viloyatlarda 5 mingga yaqin xo'jaliklar tugatildi. Ular yerga ishlov berishda qatnashmagan, chorikorlarning o'ziga tashlab qo'yilgan, ular esa nochor xo'jaliklar bo'lganligi uchun dehqonchilikka yangi texnika, agrotexnika yutuqlarini qo'llamas edi. O'zbekistonda o'tkazilgan yer-suv islohoti jarayonida boy xo'jaliklar bilan

birga to`q, badavlat xo`jaliklarning har bir rayon uchun belgilangan norma – 7-10 desyatinadan ortiq yerlari musodara qilindi. Bu xo`jaliklar yerni to`la yoki qisman o`z kuchlari bilan ishlar edilar. Ular ishbilarmon xo`jaliklar bo`lib, yerdan samarali foydalanishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga harakat qilardilar. Yer egasining o`z kuchi bilan ishlanadigan xo`jaliklarida «me'yordan ortiqcha» yerlar tortib olindi. Ularning 3 3 «ortiqcha» ot-ho`kizlari, dehqonchilik asbobuskunalari davlat tomonidan majburan sotib olindi. «Ortiqcha» yerlari tortib olingan to`q xo`jaliklar soni 23 mingdan ortiqni tashkil qildi. Bu dehqonchilikni rivojlantirish, qishloq xo`jalik mahsulotlarini ko`paytirish imkoniyatini chekladi. O`zbekistonda yer-suv islohotini o`tkazish jarayonida to`q xo`jaliklarning cheklanishi adolat va insonparvarlikka zid bo`lib, keyinchalik ularning batamom yo`q qilinishi mehnatkash xalqimiz uchun katta fojiga aylandi. Islohot davomida tortib olingan yer fondi 475 ming desyatinani tashkil etdi. Tortib olingan yerlarning bir qismi, ya'ni faqatgina 10 %i kambag`al va kam yerli xo`jaliklarga taqsimlab berildi. Shuni aytish joizki, islohotdan keyin ham dehqonlarning kambag`al qatlami hamon katta foizni tashkil etardi. Tortib olingan yerlarning asosiy qismi davlat tasarrufida bo`lib, kolxoz va sovxozlarga berildi. Chunonchi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida tortib olingan yerlar asosida 120 kolxoz tashkil etildi. Samarqand, Toshkent, Farg`ona viloyatlarida 1925-1929-yillarda 354 ta yangi kolxoz tuzildi. Respublika bo`yicha ularning soni 522 tani tashkil etdi. Shunday qilib, O`zbekistonda 1925-1929-yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari sovet hukumatining mulkdor sinflarni cheklash va tugatishga, sinfsiz jamiyat qurishga qaratilgan navbatdagi tadbirlaridan biri bo`ldi. Bu holat keyinchalik qishloq xo`jaligini zo`ravonlik yo`li bilan yalpi jamoalashtirish jarayonini tezlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar hozirladi. Dehqon xo`jaligi va kooperatsiya Korinunistik partiyaning siyosiy doktrinasi xo`jalik yuritishning jamoa shakllarini rivojlantirishni ko`zlar edi. Butun Ittifoqda bo`lgani kabi, O`zbekistonda ham dehqon xo`jaliklarini kooperatsiyalash siyosati izchillik bilan amalga oshirib borildi. Ta'minot-tijorat ishlari, ishlab chiqarishga doir va boshqa oddiy ishlarni birgalikda bajaruvchi universal (integral) kooperatsiya keng rasm bo`ldi. 1925-yili respublikada barcha dehqon xo`jaliklarining 36%dan ko`prog`ini birlashtirgan 595 shirkat ishlab turdi. 1926-yilning ikkinchi yarmidan boshlab qishloq xo`jalik kooperatsiyasini ixtisoslashtirishga kirishildi. Universal qishloq kooperatsiyasidan iborat «Uzbekselsoyuz»)dan paxtachilik, keyin esa chorvachilik kooperatsiyasi, meva- sabzavot, ipakchilik kooperatsiyalari va boshqalar ajralib chiqdi. Ular markaziy boshqaruvraysoyuz-shirkatdan iborat tugal tizimga ega bo`ldi. Kooperatsiyaning qaysi shakllaridan aholi manfaatdor bo`lsa, uning shu shakllari ko`proq rivojlanib bordi. O`zbekiston uchun dehqon xo`jaliklarining 60%dan ortig`ini birlashtirgan

«Uzbekpaxtasoyuz» paxtachilik kooperatsiyasining rivojlanishi alohida ahamiyatga ega bo`ldi. Sug`oriladigan dehqonchilik shirkatlarida dehqon xo`jaliklarini rivojlantirishda awal tashkil etilgan melioratsiya kooperativlari katta rol o`ynadi. o`lkada

sugʻoriladigan dehqonchilik rasm boʻlganidan beri yerlarni sugʻorish ishlari, yaʼni irrigatsiya ishlari birgalikda olib borilardi. Qishloq xoʻjalik kooperatsiyasining qishloq xoʻjalik mahsulotlarini shartnoma asosida toʻplab, sanoatga topshirish faoliyati dehqon xoʻjaliklari uchun katta ahamiyatga ega boʻldi. Bunda davlat sanoat korxonasi bilan yakka dehqon xoʻjaligi oʻrtasida mahsulotning maʼlum miqdorini oldindan belgilangan narxlar asosida topshirish, shartnoma tuzayotgan tashkilotlar tomonidan dehqonlarga pul va natura koʻrinishida 4 4 boʻnaklar berib turish, dehqonlarni qishloq xoʻjalik asbob-uskunalari hamda urugʻliklar bilan imtiyozli taʼminlab borish toʻgʻrisida kooperatsiya orqali shartnoma tuzilar edi. Bunday shartnomalarning rasm boʻlishi oʻzbek qishlogʻini bozorga jalb etish, mayda tovar dehqon xoʻjaliklarini rivojlantirishga koʻmaklashdi. 1929-yildayoq Oʻzbekistonda tayyorlanadigan paxta xom ashyosining deyarli 100%i, qorakoʻl terining 82%i, junning 70%i, quruq mevaning 60%i shartnoma asosida topshiriladigan boʻldi. Qishloq xoʻjalik kooperatsiyasi tizimi, butun Ittifoqda boʻlgani kabi, Oʻzbekistonda ham 20-yillarning oxiriga qadar saqlanib keldi. 1929-yili dehqon xoʻjaliklarining 80 foizi kooperatsiyaning turli xillariga jalb etilgan edi. Kooperatsiyaning birorta shakli ham imkoniyatlarini tugal namoyon etmadi. 1929-yil kuzidan boshlab qishloq xoʻjalik kooperatsiyasining kolxozlargacha boʻlgan shakllariga barham berildi. 1927-yildan boshlab kooperatsiyani «davlatlashtirish» tendensiyalari kuchayib, uning xoʻjalik hisobi asosidagi negizlari tobora koʻproq qoʻporila boshlandi. Dehqon xoʻjaligini yuksaltirishga doir masalalarning barchasi davlatga borib taqaladigan boʻlib qoldi (soliq siyosati, kredit, narxlar va boshqalar). Yangi iqtisodiy siyosat tamoyillaridan voz kechish kooperativ qurilishga oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Kooperatsiyaning sotsialistik shakllari degan xillari jadal surʼatlarda rasm boʻla boshladi. 20-yillarda bu yerni jamoa boʻlib ishlovchi sbirkatlar, yaʼni TOZlar (Tovarishstvo po obshestvennoy obrabotke zemli) tuzish, qishloq xoʻjalik artellarini tashkil qilishda namoyon boʻldi. Oʻzbekistonda oʻsha kezlar 550 ta artel va 166 ta TOZ tuzilgan. 20-yillar oxirida yangi iqtisodiy siyosatga barham berilishi kooperatsiya tizimining yemirilishiga olib keldi. Partiya qishloq xoʻjaligini boshqarishni davlat qoʻliga oʻtkazish yoʻlini tutdi. Mamlakatning siyosiy rahbariyati yalpi jamoalashtirish yoʻliga oʻtish vazifalarini ilgari surdi. Turkiston - mintaqa xalqlarining yagona makoni, umumiy vatani Markaziy Osiyo, jumladan, Turkiston, Buxoro va Xorazm davlatlarining tub xalqlari necha asrlar davomida turmush tarzi va anʼanalari jihatidan bir-biriga yaqin boʻlib keldilar. Buxoro va Xorazm XX asr 20- yillarining boshiga qadar mustaqil davlatlar boʻlgan. Bu mintaqa yagona zamini, oʻz xoʻjaligi, anʼanalari, dini, madaniyatining mushtarakligi bilan ajralib turgan. oʻrta Osiyo davlatlaridan har birining koʻp millatli ekanligi, oʻzbeklar, turkmanlar, tojiklar, qoraqalpoqlar, qirgʻizlar, qozoqlar va, boshqa yerli xalqlarning uchala davlat hududlarida tarqalib yashashi tarixan anʼanaviy boʻlgan. Mana shu davlat tuzilmalari doirasida har bir xalq yoki alohida urugʻlar xoʻjalik hayoti tizimidagi oʻz oʻrn egallab, oʻzining ishlab chiqarish va xoʻjalik faoliy bilan davlat va mintaqa ijtimoiy

hayotining yaxlit za jiridagi uzilmas halqani tashkil etgan. Turkist mintaqasining xalqlari shu zaminni qadimdan o`zla ning asl vatani deb bilganlar. Vatan yagonaligi hissi x£ ijodiyotida, an'analarida, madaniyatida o`z aksini topg; va shu mintaqada yashab turgan barcha xalqlarni abadiy qadriyatiga aylangan. Bu mintaqaning xalqlari birdir degan g`oya avlodai avlodga o`tib, milliy yetakchilar, jamoat arboblari va milliy ziyolilarning qarashlari hamda amaliy faoliyatL rida aks etdi. Hudud yaxlitligiga, xalqning birligiga xav xatar tug`ilgan kezlarda ana shu g`oya xuddi bir qalqoi dek bo`lib turdi, xalqlarning bir-biridan ajralib, uzo( 5 5 lashib ketishining oldini oluvchi omil bo`lib qoldi. Milliy respublikalar va viloyatlar tuzishga ko`rsatma berilishi va uning siyosiy jihatdan asoslanishli Tarixan tarkib topgan uchta davlatni tugatib turib, ularning o`rniga yangi davlatlar tuzish fikri o`JJca va markazning rahbar xodimlaridan chiqdi. 1920- yilning boshlaridayoq TSRni bo`lib tashlash va milliy til belgisiga qarab muxtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasi qo`yilgan edi. Bu g`oya Turkkomissiya raisi Ya. Rudzutak tashabbusi bilan 1920-yil 15-yanvarda qabul qilingan tezislarda aytiladi. Bu tezislarda o`sha yilning iyun oyida RKP(b) Markaziy Komitetining «Partiyaning Turkistondagi vazifalari haqida» degan qarori loyihasiga kiritildi. Bu taklifni V.I. Lenin qo`llab-quvatladi. Loyihaga bildirgan o`z mulohazalarida u Turkistonmng «O'zbekiya, Qirg`iziya, Turkmaniya»ga bo`lingan kartasini tuzish zarur deb ko`rsatdi. V.I. Lenin birmuncha keyinroq o`zi tayyorlagan boshqa bir loyihada o`z nuqtai nazarini o`zgartirib: «Respublikani (ya'ni Turkistonni) 3 qismga bo`lish oldindan hal qilib qo'yilmasin», deb uqtirdi. Turkistonning ma'muriy- hududiy kartasini qaytadan ko`rib chiqish bolsheviklarning qaytadan tuzish siyosatidan o`lkada norozilik kuchayib borgan, mustaqillik uchun harakat ko`lami kengayib kelayotgani, milliy masala yuzasidan Kavkazortida boshlangan kurash aks sadosi va boshqa sabablarga ko`ra orqaga surilib turdi. 1920-yilga kelib o`rta Osiyoda TSRdan tashqari Buxoro va Xorazm Xalq Sovet respublikalari tuzilganligi ham muhim omil bo`ldi. Bu respublikalar tuzilganidan keyin ma'lum rahbarlar guruhi ularni ham hududiy qayta bichish doirasiga tortish rejalarini ilgari surdilar. Milliy respublikalar tuzish zarurligi g`oyasi tashabbuschilari uni (ya'ni, bu g`oyani) yerli xalqlar hayotida tengsizlik mavjudligi, milliy mojarolar kuchayib borayotgani bilan asosladi. Bu mojarolardan qutulish yo`li turkmanlar, qirg`izlar va boshqalarning milliy davlatini tuzish, deb e'lon qildilar, amalda esa bu chora-tadbir xalqlarni bir-biridan ajratib qo`yishdan boshqa narsa emas edi.

Hududlarni qaytadan belgilash va chegaralash tarafdorlari til tafovutlari, milliy tafovutlarga diqqatni ko`proq qaratib, ho`jalikka oid, iqtisodiy omillarni, mavjud suv resurslari, sug`orish tizimlarining umumiy ekanligini kamroq hisobga oldilar. Umuman, siyosiy jihatlar birinchi darajali hisoblandi. Rahbar xodimlar orasidagi yevropaliklar bilan tub xalqlar vakillari o`rtasidagi ixtiloflar, shuningdek, ayrim guruhbozlik ko`rinishlari mexanik tarzda o`rta Osiyo mintaqasi xalqlari o`rtasidagi munosabatlarga ko`chdi. Rudzutak, Stalin va boshqalar o`rta Osiyoda milliy mojarolar mavjudligini uqtirdilar. Milliy masala sun'iy ravishda bo`rttirib yuborildi va davlatlar hududini

tubdan qayta belgilash uchun hal qiluvchi asosiy dalil sifatida ilgari surildi. Pozitsiyalar va qarashlarning to'qnashuvi Turkkomissiya va Ya.Rudzutak tezislariga qarama-qarshi o'laroq, Turor Risqulov va bir guruh milliy yetakchilar 1920-yildayoq turkiyzabon xalqlar yagona bo'lib, ularning tarixiy ildizlari, dinlari, an'analari va madaniyati mushtarakdir, Turkistonni alohida qismlarga ajratib bo'lmaydi, degan g'oyani ilgari surdilar. Biroq bu fikrni bolshevikcha Markaz inkor etib, uni panturkizm, panislomizm, burjua millatchiligi deb baholadi. Mintaqani milliy-hududiy jihatdan qayta tuzish masalasi partiya organlari tomonidan ishlab chiqildi va amalga oshirildi. O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro) umummintaqani qamrab oladigan chegaralanish zarurligi to'g'risidagi masalani respublikalar partiya organlari, partiya xodimlari muhokamasiga qo'yishga zo'r berib intildi. Bu holat, xususan, SSSR tuzilgach (1922- yU 30dekabr) kuchaydi. 1922-yili, va ayniqsa, 1923-yili yerli millatlar vakillarining bir qancha rahbar xodimlari o'rta Osiyoda amalga oshirilayotgan milliy siyosatdan qoniqmayotganliklarini ochiq-oydin ma'lum qila boshladilar. 1923-yil oxirida Turkiston xodimlarining bir guruhi Markazga xat bilan murojaat qilib, unda milliy nizolar o'lkada tugatilmasdan, ko'proq avj oldirilmoqda, deb qayd etdilar. Ushbu maktubda milliy yetakchilar mavjud bo'lgan ma'lum milliy-hududiy nizolarni tarixan tarkib topgan hududlar, aloqalar, davlat tuzumini keskin buzmasdan, har bir alohida respublika dokasida hal qilish zarur, degan fikrni ilgari surdilar. Ba'zi joylarda bu g'oya amaliy jihatdan yuzaga chaqarildi. 1923-yil oktabrida Buxoro respublikasida turkman va tojik viloyatlari tashkil etildi. Keyinchalik Xorazm respublikasida muxtor turkman va muxtor qirg'iz-qozoqqoraqalpoq viloyatlarini tashkil etishga qaror qilindi. 1923-yil dekabrda Farg'ona vodiysi vakillari RSFSR tarkibida «Farg'ona muxtor viloyati tashkil etish to'g'risida taklif bilan chiqdilar. Biroq bu fikrni o'lkadagi rahbar organlar, awalo partiya organlari xato fikr deb» rad etdi. Chegaralash g'oyasini ishlab chiqib, maromiga yetkazish yo'li va boshqa bir qancha takliflar ham olg'a surildi. Biroq Markaz va RKP(b) Markaziy Komiteti o'rta Osiyo byurosi yaxlit va ulkan mintaqada, awalo uchta o'rta Osiyo respublikalari hududlarida yalpi hududiy chegaralash chora-tadbirlarini qafiy ilgari surdilar. 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralash O'rta Osiyoni chegaralab bo'lish va milliy respublikalar tuzish g'oyasi 1924-yilda amalga oshirila boshlandi. Biroq bu masalaga doir ziddiyatlar ayni davrda ham davom etaverdi. Bu kampaniyada ishtirok etishdan bo'yin tovlashga ochiq-oydin intilish hollari takrorlanaverdi, yangi loyihalar taklif etildi. Lekin Markaz, o'rta Osiyo byurosi qattiq turib oldi. Ammo O'rta Osiyo respublikalaridagi hukumat va partiya organlarining nuqtai nazarlari yakdil emas edi. Turkiy xalqlar bir-biriga yaqin, degan fikr o'rta Osiyoga qo'yilar, boshqa dalillar keltirilardi. 1924-yil fevralida Buxoro Kompartiyasi chegaralanish masalasini ko'rib chiqdi. Unda o'rta Osiyoning ma'muriy tuzilishi yuzasidan taklif etilayotgan, barcha turkiy xalqlarning ildizi birligini hisobga olmaydigan siyosat o'tmish istilochilari siyosati bilan aslida bir deb aytili. O'rta Osiyo byurosi tezislardagi bu fikrlarni xato deb e'lon qilib, qattiq tanqid ostiga oldi. Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti va Turkiston kompartiyasining 10-martdagi

birlashgan kengashida atoqli partiya xodimlari S.Xo`janov, S.Asfandiyorov, N.Paskutskiy o`rta Osiyodagi mavjud sovet respublikalari o`rnida o`rta Osiyo federatsiyasini tuzish to`g`risida taklif kiritdilar. Shu bilan birga S.Xo`janov Turkiston yagona, bir butun va uning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emas, deb qo`shimcha qildi. Xorazm rahbarlarida ham alohida fikrlar mavjud edi. 1924-yil martida ular respublika doirasida: turkmanlar, o`zbeklar, qirg`izlarning «sud ishlari... shariat bo`yicha olib boriladigan, milliy tillardagi... maktablari bo`lgan» muxtor viloyatlarini tuzishni taklif etdilar. 8- may kuni bir guruh Xorazm rahbarlari RKP(b) Markaziy Komitetiga 7 7

«Xorazmda milliy masalani hal qilish to`g`risida maktub» yuborib, unda Xorazmni chegaralanishga qo`shmaslikni iltimos qildilar. Ular o`zlarining shu nuqtai nazarlarini respublikaning olisda joylashganligi, iqtisodiy jihatdan ajralib turganligi bilan asosladilar. Bu nuqtai nazarni Xorazm Kompartiyasi Markaziy Komiteti, jumladan, Qalandar Odinayev (1897—1938) ham qo`llab-quvatladi. Qalandar Odinayev 1922- yil oktabriga qadar Amudaryo viloyatida, so`ngra Xorazmda RKP(b) Markaziy Komiteti o`rta Osiyo byurosi vakili bo`lib ishladi. 1924-yil iyulda Q. Odinayev Xorazm Kompartiyasi mas'ul kotib vazifasidan olib tashlandi. Munozaralar tobora qizib bordi. Stalin «Millatlar o`rtasidagi nizolarga xotima berish» uchun chegaralanishni amalga oshirishga kirishishni taklif etdi. 1924-yil 12-iyunda RKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi 3`rta Osiyoda chegaralanish to`g`risidagi masalani yana bir ko`rib chiqdi va uni o`tkazish to`g`risida qaror qabul qildi. Xorazm respublikasi chegaralanishga kiritildi, lekin 1924-yil 26-iyulda Xorazm Kompartiyasi respublikaning chegaralanishga kiritilishiga o`zining roziligini bildirdi. O`zbekiston SSRning tashkil etilishi. Chegaralanish yakunlari Turkistonda, Buxoro va Xorazm respublikalarida amaliy ish boshlab yuborildi. Komissiyalar va kichik komissiyalar bo`lg`usi tuzilmalarning hududlari va chegaralari to`g`risidagi masalani ishlab chiqdilar. Boshqaruv apparatlari tuzib, rejalar, iqtisodiyot, byudjet, yer-suv muammolarini, maorif, sog`liqni saqlashni tashkil qilish muammolarini va boshqalarni hal qildilar. Siyosiy tushuntirish ishlari olib borildi. Materiallar matbuotda e`lon qilinar, miting va yig`ilishlar o`tkazilar edi. Milliy-hududiy chegaralanish o`tkazilishini ma`qullab rezolyutsiyalar qabul qilindi.

1924-yil 31-oktabrda O`zbekiston SSR Inqilobiy Komiteti (revkom) tuzildi, u O`zbekiston respublikasi tuzishni boshqarib bordi. Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida 1925-yil 13-fevralda Sovetlarning I umum-o`zbek qurultoyi ochildi. Unda

«O`zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilgani to`g`risidagi deklaratsiya» qabul qilindi. O`zbekiston hukumatining boshlig`i qilib Fayzulla Xo`jayev saylandi. S'yezd respublika hokimiyatining oliy organlarini rasmiylashtirdi. Respublika sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti raisi etib Farg`ona vodiysidan chiqqan dehqon, «Qo`shchi» ittifoqining raisi Yo`ldosh Oxunboboyev (1885-1943) saylandi. Jamoat tashkilotlari ham tuzildi. O`zbekiston SSRning dastlabki poytaxti Buxoro bo`lgan. Biroq ko`p o`tmay - 1925-yil aprelida poytaxt Samarqandga ko`chirildi. O`zbekiston SSR keyinchalik- 1925-yil mayda SSSR tarkibiga kirdi. 1929-yilgacha Tojikiston ASSR O`zbekiston SSR

tarkibida bo'lgan. Tuzilgan O'zbekiston SSRga TSSRdan Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining katta qismi, sobiq Buxoro Xalq Sovet Respublikasidan uning markaziy va g'arbiy qismlari, ya'ni Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylari, shuningdek, Xorazm vohasi kirdi. O'zbekiston SSR hududi 312394 kv.km ni ishg'ol qildi. O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR tuzildi, bu muxtor respublika keyinchalik Tojikiston SSRga aylantirildi. O'zbekiston SSRning o'z aholisi, 1926-yildagi ro'yxatga olish ma'lumotlariga qaraganda, 4447555 kishini tashkil etdi, ularning 74,2 foizi o'zbeklar edi. Respublikaga 1195 ming desyatina sug'oriladigan yer, ishlab turgan 185 ta sanoat korxonalarini kirdi. Bu 88 korxonalar orasida 39 ta paxta tozalash zavodi bor edi. O'zbekiston SSR sanoatida 87 ming ishchi ishlardi. Milliy-hududiy chegaralash O'zbekiston xalqlari uchun har tomonlama boshqacha ahamiyatga ega bo'ldi. U xalqning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, madaniyatiga, an'alariga katta ta'sir ko'rsatdi. Mintaqa kartasi qaytadan tuzildi. O'zbekiston SSRning tuzilishi esa O'zbekiston xalqi davlat tuzilishi tarixida diqqatga sazovor voqealarning biri bo'lib qoldi. Lekin bu o'zbek davlatchiligi tarixiga asos solindi, degan ma'noni anglatmaydi, albatta. Xalqimizning davlatchiligi ko'p asrlik tarixga ega. O'zbekiston SSR esa amalda hech qanday mustaqil siyosiy huquqlarga ega emas edi, chunki u mustabid sovet tuzumining yangi shaklidagi bir qismi edi, xolos.

#### ADABIYOTLAR:

1. Ziyoev X. O'zbekistonning mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. Toshkent: 2000.
2. Alimova D., Golovanov A., O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari, T., 2000
3. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2019.
4. Abdullaev R., Rajabov Q. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 1-2-tom.